Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2024, 177-bet.

(2). Arziqulov R. Reproduktiv salomatlik asoslari. Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2010, 138–139-betlar.

(3). Rahimqulov K. Milliy harakatli o‘yinlar. Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni”, 2012.

(4). Razzoqov A. Tibbiyot falsafasi. Toshkent, TDMI, 2005.

(5). Sodiqov Q. Valeologiya asoslari (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, TDPU, 2008, 53-bet.

(6). Акбашев Т.Ф., Солдатова В.А. Всеобщая валеограмотность. Ростов-на-Дону, РДУ, 1994.

Ismoilov Sobirjon To‘rabekovich (GulDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

SHARQONA MUSHTARAKLIK

Annotatsiya. *Koreys va o‘zbek xalqlarining o‘zaro do‘stlik aloqalariga zamin bo‘lib xizmat qilgan ikki xalqning o‘zaro o‘xshash jihatlarining ayrim qirralari faktik va analitik jihatdan yoritib berilgan. Koreys va o‘zbek xalqlarining mushtaraklik qirralari qiyoslangan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek, koreys, “shabnamlar mamlakati”, “serquyosh o‘lka”, sharqonalik, mushtaraklik.*

Исмаилов Собиржон Турабекович (доцент кафедры «Общественных наук» ГулГУ, кандидат философских наук)

ВОСТОЧНОЕ СОДРУЖЕСТВО

Аннотация. *Эта статья о взаимной дружбе между корейским и узбекским народами. Некоторые аспекты взаимоотношений двух народов, послужившие основной, объяснены с аналитической точки зрения. Сопоставляются аспекты общности корейских и узбекских народов.*

Ключевые слова: *корейский, узбекский. «страна роси», «земля солнца», восточность, общность.*

Ismailov Sobirjon Turabekovich (Associate professor os the departament of “Social sciences” GulSU, candidate of philosophical sciences)

EASTERN COMMONWEALTH

Annotation. *This article is about mutual friendship between Korean and Uzbek peoples. Some aspects of the relationship between the two peoples, which served as the main are the explained from an analytical point of view. Aspects of the commonality of the Korean and Uzbek peoples compared.*

Key words: *Korean, Uzbek, “country of dew”, “land of the sun”, orientalism, community.*

Kirish. Qadimgi va yangi Sharq insoniyat tarixida juda ko‘p kashfiyot-u yangiliklarning vatani bo‘lgan. G‘arb esa hozirgacha Sharqdan o‘rganib keladi. Italyan hikmatlaridan birida ta’kidlanganidek, “Quyosh Sharqdan chiqadi”. Sharq sivilizatsiyasi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan xalqlar qatorida koreys va o‘zbek xalqlari ham turadi. Agar Koreya – “Ertalabki shabnamlar mamlakati” deyilsa, O‘zbekiston – “Serquyosh o‘lka, janatmakon yurt” deb ataladi. Janubiy Koreya to‘rt “Osiyo yo‘lbarslari” bo‘lgan Tayvan, Gonkong va Singapur mamlakatlar orasida yuqori o‘rinda bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida alohida mavqega ega. Bu ikki xalq o‘rtasida juda qadimdan o‘zaro aloqalar o‘rnatilgan. XX asr so‘ngida bu rishtaning yangi bosqichi boshlandi [4;3-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuda tadqiqotchilar: Ahmedova M., Xan V., Bekmurodov I., Jabborov I., Irgebayev A., Osipov V., Hasan Ato Abushiy va boshqalar mavzuga oid tadqiqot olib borishgan. Ayniqsa, Hasan Ato Abushiyning “Turkiy qavmlar tarixi” kitobi va M.Ahmedova, V.Xanlarning “Falsafa” darsliklarida mavzu yuzasidan atroflich ma’lumotlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimlilik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, mantiqiylik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Koreys va o‘zbek xalqlari o‘zaro aloqalarning rivojlanish omillaridan biri bu xalqlari o‘rtasidagi etnik mushtaraklikdir. Ushbu maqolamizda mazkur mushtaraklikning ayrim jihatlariga to‘xtalamiz.

Birinchidan, koreys va o‘zbek xalqlarining kelib chiqish makoni Markaziy Osiyo hududlaridir. Koreyaning qadimgi tarixlarida Qadimgi Quryo davlatining ilk kelib chiqish manzili Turon yurti ekanligi to‘g‘risida talqinlar bor. “Koreyslar ruhiy jismoniy belgilarni o‘zlarida ifodalagan bir qator mo‘g‘iliy qabilalarning avlodlari bo‘lib, Koreya yarim oroliga Markaziy Osiyodan ko‘chib kelib qolgan hisoblanishadi” [6;10-b.]. Koreyslarni, dastlab, ota-bobolari Markaziy Osiyo mintaqasida istiqomat qilib, taqdir taqozosi bilan Koreya yarim oroliga borib qolishgan [2].

Turk tarixchisi Hasan Ato Abushiy 1909-yilda yozgan o‘zining “Turkiy qavmlar tarixi” asarida “Qo‘riyo xalqlarini” qavmi Turoniyaga kiritadi hamda “qavmi Turoniya Turk urug‘i qavmlari otolmishdir”, deb yozadi [8;20–21-b.].

Ikkinchidan, koreys va o‘zbek xalqlarining bir-biriga o‘xshash jihatlaridan biri har ikki xalqning mehnatsevarligidir. Dunyodagi 80 milliondan ortiq koreyslar va 40 milliondan ortiq o‘zbeklar nafaqat o‘z yurtlarida, balki dunyoning qaysi bir burchagida yashayotgan bo‘lmasinlar, o‘z mehnatsevarlik fazilatlarini namoyon qilmoqdalar. Buni dunyodagi boshqa xalqlar ham e’tirof etishgan.

“Koreyslarning asosiy kasbi dehqonchilik. Ular, asosan, bug‘doy, sholi, arpa, gaolyan, loviya va yog‘ ekinlari, kartoshka va batat ekadilar” [3;191-b.], deb yozadi taniqli o‘zbekistonlik etnograf olim I.Jabborov.

Uchinchidan, koreys va o‘zbek xalqlarida oila va oilaviy qadriyatlarga alohida ahamiyat beriladi. Jumladan, ota-onaga, aka-ukaga oilada bo‘ladigan munosabatlar doimo samimiy bo‘lib, katta ehtirom ko‘rsatiladi. Ona obrazi har ikki xalqda Vatan timsoli bilan tenglashtiriladi. Onalarga ayricha hurmat va izzat ko‘rsatiladi. Koreyslarda oilaviy bayramlarga alohida e’tibor qaratishadi [6;166-b.]. Ularda pekil-bola tug‘ilganligini 100 kunligini nishonlash–o‘zbeklarda chilla chiqdi, tol–bolani bir yoshga to‘lishini nishonlash–o‘zbeklarda aqiqa, xvangap–60 yillik yubiley-sharq tavqimi bo‘yicha besh muchalni qayd etish-o‘zbeklarda payg‘ambar yoshini nishonlash kabi.

To‘rtinchidan, koreys va o‘zbek xalqlari oqsil moddalarga boy bo‘lgan guruchli taomlarni ko‘p iste’mol qilishadi. O‘zbeklar xonadonida kamida haftasiga ikki marta palov-osh damlansa, koreyslar deyarli har kuni pap eyishadi, shuningdek, guruchli non iste’mol qilishadi.

“Koreyslarni bosh taomi alohida yoki boshqa aralashmalar bilan birga tayyorlangan guruch hisoblanadi” [6:160].

“Koreyslarda ham asrlar davomida asosiy taomi tuzsiz qaynatilgan guruch (pap) bo‘lgan. Guruchni maxsus idishlarda past olovda pishirib, damlaganlar. Mayda guruch (oqushoq), arpa, bug‘doy, tariq va makkadan atala pishiradilar” [3;194-b.].

Beshinchidan, koreys va o‘zbek xalqlari o‘rtasida turmushdagi o‘xshash urf-odatlardan biri turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan, ondol va sandaldir. Ondol xonani polning tagiga qurilgan maxsus isitish moslamasi bo‘lib, u xonani pol tagidan isitish bilan birga, kishilarning belidan pastki a’zolarini issiq tutadi. Bu kishi tanasidagi issiqlik me’yorini izchil bir mezonda saqlab turishga yordam beradi. Sandal esa to‘rtburchak, yog‘ochdan yasalgan bo‘lib, ichiga temir idishda xillagan cho‘g‘ qo‘yiladi va ustiga qalin paxtali ko‘rpa yopiladi. Buni o‘zbeklar sandalpo‘sh, deydilar. Sandaldagi issiqlik kishini, avvalo, tez soviydigan oyoq qismiga ta’sir qo‘rsatib, keyin boshqa a’zolarga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, sandal xonadonda havoning tozaligiga ham sabab bo‘ladi. Har ikki isitish vositasi ikki xalqning buyuk kashfiyotlaridirki, buni dunyo xalqlari tan olishgan. To‘g‘ri, sivilizatsiyalashgan jamiyatlarda ondol va sandallarning ahamiyati bundan yuz yil oldingidek ahamiyatli emasdir, lekin hozirda ham qishloqlarda yashayotgan koreys va o‘zbeklar undan milliy qadriyat sifatida foydalanib keladilar. Ayrim hollarda boshqa qishloqlarda yashayotgan aholi ham ulardan foydalanadi.

Oltinchidan, koreys va o‘zbeklar sharqona tafakkur xazinasining manbayi bo‘lgan hikmatlarga, maqollarga juda boy xalqlardir. Bu xalqlar hikmatlarida o‘zaro uyg‘unlik bordek, nazarimizda. Buni quyidagi maqollar ko‘rsatib turibdi. Koreyscha [5;27-b.] va o‘zbekcha [7;112-b.] aytganda:

1. “Chuqur daryo shovqinsiz oqadi” – “Chuqur daryo sokin oqadi”.
2. “Bo‘sh arava ko‘p g‘ichirlaydi” – “Puch yang‘oq qattiq shaqirlaydi”.
3. “Yovvoyi o‘rik ko‘rinishdan chiroylidir” – “Yovvoyi bodom ko‘p meva qiladi”.
4. “Bir qush cho‘qimcha qon”– “Xamir uchidan patir”.
5. “Ulkan tog‘lar ham mayda qumlardan paydo bo‘ladi” –“Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, Qatra-qatra yig‘ilib, daryo bo‘lur”.
6. “Yaxshi ishlasang, yaxshi eysan”–“Yaxshi mehnat – kamolot garovi”.
7. “Bahorda qanday eksang, kuzda xuddi shunday yig‘ib olasan” – “Bahorada ekkan–kuzda o‘radi”.
8. “Yoqilmagan pechka tutamaydi” –“Ishlamagan tishlamaydi”.
9. “Savol qanday bo‘lsa, javob ham unga yarasha bo‘ladi”– “Eshagiga yarasha tushovi”.
10. “Igna qayerda bo‘lsa, u yerda ip ham bo‘ladi” – “Igna qayoqqa yursa, ip ham shu yoqqa yurar”.
11. “Kimki olov bilan o‘ynashni yaxshi ko‘rsa, u shundan ajal topadi” –“O‘ynashmagin arbob bilan, arbob urar harbob bilan”.
12. “Agar suv yuzada toza bo‘lsa, unda tagida ham toza bo‘ladi” –“To‘qqizida qanday–to‘qsonida shunday”.
13. “Bir ko‘rpada yotib, turlicha tushlar ko‘radi” – “Har yurakning o‘z orzusi bor”.

14. “Hamma gapirgan bazmda eydigan narsa bo‘lmaydi” – “Maqtalgan qiz to‘yda hunar ko‘rsatar”.

15. “Qayerda baland tog‘ bo‘lsa, u yerda chuqur dara ham bo‘ladi”–“Buyuklarda, orzular ham buyuk bo‘ladi”.

Ettinchidan, koreys va o‘zbek xalqlari boy sharqona falsafa va falsafiy fikrlash an’analariga egadirlar.

“Dunyo qadimgi koreyslar nigohida ikki ibtido bo‘lgan: ijobiy, yorug‘, faol ibtido “yan” va salbiy, qorong‘i, faoliyatsiz ibtido “in”ning quyuqlashishi va yoyilishi sifatida tasavvur qilinar edi. Ikkala ibtidoning (“yan”–yorug‘, qorong‘i “in”ning) sifatlaridan bahramand bo‘lgan birinchi ibtidoiy javhar (efir) “ki”ning birga qo‘shilishi va boshqacha qiyofaga kirishi natijasida osmon va yer hamda beshta koinotiy hodisa bo‘lgan metall, daraxt, suv, olov, tuproq paydo bo‘ldi. Ushbu birinchi unsurlarning birikmasi barcha xilma-xil mavjud narsalarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Eramizdan oldingi I asrga kelib, Quriya yarim orolida uch mustaqil davlat tashkil topdi: Koguryo (eramizdan oldingi 37-yil – eramizning 668-yili), Pekche (eramizdan oldingi 18-yil – eramizning 660-yili) va Silla (eramizdan oldingi 57-yil – eramizning 935-yili). Uch podsholik davrida, afsonaviy tasavvurlar bilan bir qatorda, yorug‘lik va qorong‘ilik ibtidolari (“yan” va “in”) haqidagi ta’limot yanada rivojlantirildi” [1;3–70-b.], deb qayd etadi falsafa darsligida, koreys millatiga mansub bo‘lgan o‘zbekistonlik faylasuf olim V.Xan.

Bu tushuncha va tasavvurlar otashparastlikdagi yaxshilik bilan yomonlik, rostgo‘ylik bilan yolg‘onchilik, zulmat bilan nur o‘rtasidagi doimiy kurash haqidagi g‘oyalarga aynan mos keladi. Har ikki ta’limot 2–3 ming yillik tarixga ega. Har ikki xalqda har bir narsa to‘g‘risida avval o‘ylab, mulohaza yuritib, keyin so‘z va ish boshlash odati mavjud. Koreys va o‘zbek xalqlari dunyodagi eng mulohazali va tafakkuri keng bo‘lgan xalqlardandir.

Sakkizinchidan, “Lingvistik va etnologik tadqiqotlar natijasida koreys tili ham turkiy tillar kabi Ural-oltoy [6;13-b.] tillar oilasiga kirishi aniqlangan. Shuning uchun ham o‘zbek va koreys tillarida gaplarning stilistik tuzilish jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lganligi uchun koreys tilini o‘rganish unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Yurtimizda nafaqat koreys tili, balki ularning madaniyatiga bo‘lgan qiziqish ham tobora ortib bormoqda” [2;5-b.].

To‘qqizinchidan, kores va o‘zbek xalqlari bayramlarida ham o‘zaro yaqinlik mavjud. Dehqonchilik, yil boshi Navro‘z va Tebor, hosildorlik, Mehrjon va Chxusok bayramlari o‘rtasida yaqinlik bor. Hatto, har ikki xalqlarda mustaqillik bayramlari avgust oyida e’lon qilingan. Koreyslarda 15-avgust 1948-yil mustaqillik kuni deb e’lon qilingan bo‘lsa, o‘zbeklarda 31-avgust 1991-yil 1-sentabr mustaqillik kuni deb e’lon qilingan.

O‘ninchidan, har ikki mamlakat bayroqlarida ham o‘xshash jihatlar bo‘lib, ularda moviy va oq ranglar asosiy ranglar hisoblanadi. Har ikki davlat bayroqlaridagi moviy rang tiriklik, osmon va obihayot ramzi bo‘lsa, oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari, bayroqlardagi oq rang – poklik, beg‘uborlik va soflikni ham o‘zida ifoda etadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytganda, yuqorida qayd etilgan jihat va xususiyatlar bugungi kun koreys va o‘zbek xalqlari do‘stligi, qardoshlik aloqalarining yangi bosqichga ko‘tarilishiga qaysidir ma’noda turtki bo‘lgan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘tgan 2024-yilda Janubiy Koreya va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o‘rnatilganligiga 32 yil to‘ldi. Bizningcha, bu koreys va o‘zbek xalqlarining do‘stligi yuqoridagi omillar sababli qadimiy va zamonaviy ildizlarga egaki, bu ikki xalqning yangi ming yillikdagi har tomonlama mustahkam aloqalarining va o‘zaro do‘stlik munosabatlarining izchil va bardavom bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ahmedova M., Xan V. Falsafa. Darslik, Toshkent, 2005.

(2). Bekmurodov I. Koreya xalqining qadimiy madaniyati, ma’naviyati va axloqiy tarbiyasi. “Postda” gazetasi, 12.02.2012.

(3). Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2008.

(4). Иргебаев А.Т., Осипов В.И. Южная Корея. Москва, “Знание”, 1990.

(5). Корея сегодня. Ежемесячный журнал. 1990, № 5.

(6). Корея. Факты в цифрах. Сеул. Корейская служба информации для зарубежных стран, 1990.

(7). Odob-oltindan qimmat (O‘zbek xalq maqollari). Toshkent, “O‘zbekiston”, 1990.

(8). Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. Toshkent, “Cho‘lpon”, 1993.